Yangi texnologiyalar – barqaror rivojlanish sari qadam!

// 25.03.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-texnologiyalar-barqaror-rivojlanish-sari-qadam

“Ammofos-Maxam” AJ hududida zamonaviy sulfat kislotasi ishlab chiqarish zavodi ishga tushish arafasida. “Almalyk Sulphuric Acid” MCHJ tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu loyiha O‘zbekiston kimyo sanoatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Loyihaning asosiy ma’lumotlari:

- Investitsiya miqdori: 6,4 million AQSh dollari
- Yillik quvvati: 66 ming tonna sulfat kislotasi
- Mahalliy va xalqaro bozorlar talabini qondirish imkoniyati
- Ekologik xavfsiz texnologiyalar asosida ishlab chiqarish
- 35 nafar malakali texnik va muhandis ish o‘rinlari

Ushbu loyiha mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish va sanoatimiz raqobatbardoshligini oshirishga katta turtki beradi.

“Ammofos-Maxam” AJ Matbuot xizmati